

## TIL TA'LIMI JARAYONIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Hakimbayeva Zebiniso Mansurjon qizi,**

*2-kurs talaba, Nukus Davlat Pedagogika*

*Instituti, Ellikqal'a Pedagogika Fakulteti,*

*Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi, O'zbekiston, Nukus*

**Annotaciya:** Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi

**Tayanch tushunchalar:** Tendentsiya; "Ibrat farzandlari "; IT; Tabiiy usul va sun'iy usul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori qabul qilingan edi.

Qarorga muvofiq, O'zbekistondagi barcha hududlar xususan chekka tumanlarida ham Maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarga kamida 2 ta xorijiy til o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga maktablar va bog'chalarda maxsus chet tili(rus tili/ingliz tili) guruhlarini faoliyat boshladi.

Xorijiy tillarni bilish kelajak eshiklarini ochuvchi bir kalitga ega bo'lishdir. XXI asr Texnika asri farzandlari fan-texnikada rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda muvaffaqiyatga erishish uchun chet tillarini bilishi lozim.

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi

Albatta Hozirgi kunda O'zbekistonda ingliz tilini o'rganish ommalashdi.

Ingliz tili- Dunyoda eng ko'p ishlatiladigan tillar orasida 3-o'rinda turadi. (Ispan va Mandarin Xitoy tillardan keyin). So'zlovchilar soni bo'yicha 3-o'rin

bo'lsada, eng ko'p insonlar o'rganishga ishtiyoq bildiradi.

Uning bosh sababi ingliz tilini o'rganish boshqa; rus, koreys tillaridan osonligi.

Ko'pchilik yangi o'rganuvchilar ingliz tili qiyin deb hisoblashadi. Hozir men sizlarga rus tili bilan solishtirib isbotlayman:

Rus tilida "mening" so'zi 3 ta rodada ; мой, моё, моё, мая , моим kabi ko'plik va birlikda o'zgaradi. Ingliz tilida esa bularning barchasi bir shaklda: My.

Ingliz tilidagi ko'pchilikni chalg'itadigan grammatik mavzu: Zamonlar.

Ingliz tilida 16 ta aktiv zamon bor va ular shubhasiz o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi.

Mana bu vaziyatda o'qituvchining kommunikativ qobiliyati muhimdir. Ya'ni har qanday qiyin mavzuni malakali o'qituvchi oson va lo'nda qilib yetkaza oladi. Bunda formulalar katta yordam beradi. Formula orqali gap tuzish ham oson. Ikkinchi sabab , ingliz tili alifbosining lotin alifbosiga asoslanganligi. Harflar va unlilarning o'xshashligi.

Yana bir sabab, Kelajak kasbi bo'lgan yangi soha – IT dasturlash tillari ham asosan ingliz tilidadir.

IT- tilimizga yaqin yillarda kirib kelgan so'z bo'lib, ingliz tilidan olingan "Information technology" so'zining qisqartmasi, o'zbek tilida "Axborot texnologiyalar" deb yuritiladi. Shunday bo'lsada , biz bu so'zni IT ko'rinishda talaffuz qilamiz va ishlatamiz.

Ma'lumot o'rnida , Googleda ma'lumotlar va maqolalarning 90%dan ortig'i ingliz tilidadir qolgan 10%i boshqa barcha tillar ulushiga to'g'ri keladi.

Kundan kunga hayotimizning bir bo'lagiga aylanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar ham avtomatik tarzda ingliz tilidagi so'zlarni avtomatik tarzda ingliz tilidagi so'zlarni ongimizga kirishi va kundalik lug'atimizga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan: "save", "tag", "share", "link", "shopping", "send" Instagram, telegram Facebook tarmoqlarida uchratiluvchi so'zlarni hozirgi yoshlarga tarjimasini tushuntirib o'tirish shart emas. Ular kundalik hayotda



bularning o‘zbekchasini aslo ishlatmaydilar. Bu so‘zlardan yana biri “trend” so‘zidir.

Bu so‘z ham ingliz tilidagi “tendensiya” -o‘shish , rivojlanish so‘zidan kelib chiqqan va buni o‘zbek tilida ifodalab bo‘lmaydi. Har bir tilda bo‘lganidek o‘zbek tilida bir talay so‘zlar borki ingliz tilida ifodalab bo‘lmaydi

Shunday ekan hozirgi zamon o‘qituvchilari yoshlar bilan o‘z tilida so‘zlashish uchun fan texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Hozirgi tezlashib borayotgan zamonda, o‘quvchilarga uzun teoreyalarni yodlatish yaramaydi amalda qo‘llash va hayotiy misollar bilan tushuntirish kerak. Ya’ni o‘quvchilarga chet tillarida biror rolik kinoda parcha qo‘yib uni eshittirish taxlil qilish sanara beradi va siz dars orasida ingliz tili foydali bloglar va ingliz tilida blog yurituvchi blogerlar haqida tavsiyalar bersangiz qiziqtirishingiz shubhasiz.

Bu o‘rinda yana bir savol; ingliz tili yoki biror boshqa chet tilini o‘qituvchisiz o‘rganish mumkinmi?

Bundan 6-7yil ilgari bo‘lganda bu imkonsiz hisoblanardi Hozir esa ha ingliz tilini o‘qituvchisiz bemalol mustaqil oprganib, hatto til sertifikatini olsa ham bo‘ladi. Bunga isbotlar ham talay. Siz grammatika va boshqa ko‘nikmalardagi darslarni You tubedan bemalol topa olasiz. Ya’ni siz har xil turdagi o‘qituvchilarni bir vaqtning o‘zida sinab ko‘rasiz.

Fan texnika ya’ni ijtimoiy tarmoqlar rivojlanmasdan oldin o‘qituvchilar o‘zlari kitobdan o‘qib ayta olaman kitoblar bazasi ham keng emas avvaldan qo‘llanib kelinayotgan kitoblardan o‘qib o‘quv markazlar yoki kurslarda bilimlarini berar edilar. Hozir esa yuqori malakali Amerika oliy o‘quv yurtlarining til o‘qituvchilari darslarini ham topib ko‘rishingiz mumkin. Ular ham bilimlarini har qancha odamga qizg‘onmasdan bera oladilar. Kundan kunga raqobat kuchayayotgan bu zamonda bu ular uchun auditoriya yig‘ish ya’ni reklama vositasidir. Butun Respublika bo‘ylab yo‘lga qo‘yilgan “Ibrat farzandlari” til o‘rgatish loyihasi ko‘pchilik yoshlarni o‘z safiga yig‘di. Unda 10 dan ortiq tillar ; ingliz, rus, nemis, koreys, ispan hato yapon tili Turk, Xitoy va hind tillari

ham yuqori malakali mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'rgatiladi.

Darslar you tubeda 0 dan boshlab darslarni o'z ichiga oladi. Unda o'qituvchilar uyga vazifa beradi va tekshiradi ham. Yoshlar tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan bu loyiha Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev e'tiboriga tushdi va loyihani "jadidchilik harakati" ga o'xshatdilar. Bu loyiha sabab chekka hududlardagi o'qituvchi yetishmaydigan joylardagi o'qituvchilar ham til o'rgana oladilar. Men bu bilan offlayn kurslarga qatnab o'qituvchi yo'llash shart emas demoqchi emasman.

Har kimning o'rganish usuli har xil va o'qituvchi sizni maqsadingizga tezroq olib bora oladi.

Chet tilini o'rganishda 2 xil usul keltiriladi. Tabiiy va sun'iy usul. Tabiiy usul: Siz biror tilni ikkinchi til sifatida o'rganganingizda. Bunda kundalik hayotda ishlatgan holda va shu tilda so'zlashuvchilar atmosferasida o'rganish. Masalan rus tilini shunday o'rganish mumkin. Chunki O'zbekistonda ko'pchilik rus tilini biliadi ayniqsa Toshkent shahri aholisining ko'pchiligi rus tilida gaplashadi.

Sun'iy usulda o'rganish, grammatik qoidalarni o'rganishdan boshlanadi va gap tuzib o'rganiladi. Sun'iy usulda o'qituvchi faqat darsda bu tilda gaplashadi va eshitadi. Tabiiy usulda o'rganish tezroq bo'ladi.

Eng muhim maslahat - juda ham oddiy: Ingliz tilini o'rgan. Hamma ishingni tashlab hoziroq boshla. Ingliz tilini bilmagan odamga - nimalarni boy berayotganini tushuntirish o'ta qiyin. Harakat qilib ko'raman: Ko'zing oq-qora ko'rar edi, birdan rangli ko'rishni boshlading. Yoki qulog'ing eshitmasdi, eshitib tushinishni boshlading. Ha shu darajada. Chunki O'zbek, Rus tillaridagi bilim - 2 bet narsa bo'lsa, Ingliz tilidagi ma'lumot - Garvard Kutubxonasi. O'qimaydigan odamga farqi yo'q, o'qiydigan uchun esa...

Til o'zi vosita xolos. Lekin til bilgach savollarga javoblar olishing tezlashib ketadi. Ingliz tilini o'rgan, shunda bilim bilan seni o'rtangda faqat Google, yoki 20\$ lik kitob qoladi.